

**SHARTNOMA № 1/4**  
Siqilgan gaz yetkazib berish bo'yicha

G'allaorol tumani  
yil

“5” yanvar 2022

Bizlarkim bir tomondan «**Grain Island**» MCHJ nomidan korxonada Nizomi asosida ish olib boruvchi boshliq I.Eshmurzayev keyinchalik **TA'MINOTCHI**, ikkinchi tomondan G'allaorol tuman hokimligi moliya bo'limi nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi keyinchalik **ISTE'MOLCHI**, tuzdik ushbu shartnomani,

**Shartnoma predmeti**

1.1 Ta'minotchi Iste'molchiga siqilgan tabiiy metan gaz (bundan keyin gaz) yetkazib beradi.

1.2 Gaz yetkazib berish Ta'minotchiga tegishli bo'lgan G'allaorol tumani, Madaniyat QFY da joylashgan AGTKSHda, Iste'molchiga tegishli bo'lgan tabiiy metan gaz yoqilg'isida ishlaydigan avtomobillarning gaz ballonlarini gaz bilan to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

1.3 Gaz yetkazib berish quyidagi jadval asosida kelishilgan miqdorda amalga oshiriladi:

Maxsulot nomi	o'lchov birligi	jami yillik	shu jumladan choraklar bo'yicha			
			1	2	3	4
Siqilgan tabiiy gaz	m3	1.350.000	1.350.000			

1.4. Shartnoma tuzilgan vaqtda 1m3 tabiiy gaz narxi **2500 (ikki ming besh yuz)** so'mni tashkil qiladi. Amaldagi qonunchilikga ko'ra 1m3 gaz narxi tarkibiga aksiz soligi, (KKS) qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa soliqlar kiradi. Xom ashyo, maxsulotlar, yoqilg'i-energetika resurslarining narxi uzgarishiga qarab va shuningdek O'zbekiston Respublikasi xukumatining xuquqiy xujjat va qarorlarining o'zgarishiga qarab gaz narxi o'zgarishi mumkin.

1.5 Gaz uchun to'lov bank qoidalariga muvofiq amaldagi qonunchilik shakllarida amalga oshiriladi,

1.6 Iste'molchi tomonidan gaz uchun 100% oldindan to'lov amalga oshirilgandan keyin, Ta'minotchi tomonidan, tarkatish kaydnomasi asosida yetkazib beriladi. Iste'molchi tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda Ta'minotchi gaz yetkazib berishni to'xtatib qo'yishi yoki shartnoma miqdoridan kamaytirishi mumkin. Iste'molchi to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmagan taqdirda qarzdorlik summasining 50% ko'p bo'lmagan summada, xar bir kechikgan kun uchun qarzdorlik summasidan 0,4% ustama (penya) to'laydi.

1.7 Ta'minotchi tomonidan shartnomada kelishilgan miqdorda gaz yetkazib berish o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda yetkazib berilmagan gazning summasining 50%

ko'p bo'lmagan summada, xar bir kechikgan kun uchun yetkazib berilmagan gazning summasidan 0,4% ustama (penya) to'laydi.

1.8. Iste'molchi o'ziga tegishli bo'lgan tabiiy metan gaz yoqilgisida ishlaydigan avtomobillarning texnik xolatiga, gaz moslamalari va jixozlarining texnik xolatiga, gaz ballonlarining texnik xolatiga, sozligiga va sinovdan o'tkazilganligiga va shuningdek avtomobillardan foydalanishda texnika xavfsizligiga to'lik javobgardir.

1.9. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

- a) gazdan va gaz ballonni o'rnatilgan avtomobillardan foydalanish qoidalariga, texnik shartlarga, yo'riqnomalarga va qo'llanmalarga to'lik amal qilishga;
- b) avtomobilning gaz ballonlarini va uskunalarini soz xolatda saqlashga;
- v) yo'l varaqasida gaz ballonlarining texnik xolati va ularning geometrik xajmi to'grisida yozuv yozib borishga;
- g) metan gaz yoqilgisida ishlaydigan avtomobillarning gaz ballonlarini gaz bilan to'ldirishga tegishli ruxsatnoma olishga;
- d) avtomobil texnik pasportning maxsus ilovasida o'rnatilgan gaz ballonlarining geometrik xajmi, soni va yig'indi xajmi to'grisida yozuv kiritishga, shuningdek bu to'gridagi yozuvlarni avtomobilning maxsus kismiga xam yozishga.

1.10. Shartnomada ko'rsatilgan bir oylik gaz miqdorini oy kunlariga bir tekis taksimlangan miqdorda Ta'minotchi yetkazib berishi, Iste'molchi olishi lozim, Iste'molchi, kunlik gaz olishi miqdorida kutiladigan o'zgarishlarni yozma tarzda yoki telefonagramma ko'rinishida bo'yicha Ta'minotchini 15 kun oldindan ogoxlantirib ko'yishi lozim. Ta'minotchi Iste'molchini, AGTKSHning uskunalarini joriy ta'mirlash vaqtida 3 kun oldin, kapital ta'mirlash vaqtida 15 kun oldin xabardor qilishi lozim.

1.11. Ta'minotchi quyidagi xukukga ega:

- a) avtomobilning gaz uskunalarini va nazorat-o'lchov vositalarini tekshirishga;
- b) xaydovchining siqilgan tabiiy gaz yoqilg'isiga ishlaydigan avtomobilni boshqarish xuquqini beruvchi guvoxnomasi mavjudligini tekshirishga;
- v) Iste'molchi (Iste'molchi xodimi) tomonidan siqilgan gazdan foydalanish, avtomobil gaz ballonlarga siqilgan gaz to'ldirish qoidalari va reglamenti talablarini bajarmagan xolda gaz yetkazib berishni to'xtatib qo'yishga.

### Maxsulot miqdori xisobi

1.12. Iste'molchiga yetkazib berilgan gaz miqdori gaz to'ldirish kolonkalaridagi schetchiklar ko'rsatgichi orqali aniqlanadi. Agarda schetchiklar vaqtinchalik texnik nosos xolatda bo'lsa, "O'zbekneftgaz" MXK tomonidan 28.11.95 yilda tasdiqlangan "AGTKSHda a/m ga sotilgan gaz xajmini aniqlash jadvali"ga ko'ra O'zstandart DANing (13.01.95 y. №418) "AGTKSHda sotilgan gaz xajmini xisoblash va o'lchovni amalga oshirish qo'llanmasi RD O'z 51- 034-94" va 12.04.96 yildagi "AGTKSH is'temolchilari bilan siqilgan gaz xisob-kitobi qo'llanmasi"ga ko'ra aniklanadi.

### Томонларнинг жавобгарлиги

1.13. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan gaz miqdoridan ziyod gaz olinadigan bo'lsa qo'shimcha kelishuv rasmiylashtiriladi. Shartnomadagi gaz miqdori yil oxirigacha olinmaydigan bo'lsa, Iste'molchi olinmay qolgan gaz miqdorining yilning oxirgi sanasi xolatiga bo'lgan summasidan 5% jarima to'laydi.

1.14. Iste'molchi yoki Ta'minotchi quyidagi xollarda gazning shartnoma miqdorini olmasa yoki yetkazib bermasa javobgarligi bo'lmaydi:

- a) texnologik jarayonda, magistral gaz quvurlarida va elektr ta'minoti tarmoqlarida oldindan bilib bo'lmaydigan xolatda buzilishlar yuzaga kelsa;
- b) yong'in bo'lganda, yer silkinishida, suv toshqinida va boshqa tabiiy ofatlarda;
- v) magistral gaz quvurlarida, elektr ta'minoti tarmoqlarida navbatdagi ta'mirlash vaqtida yoki o'shanga bog'lik sinash jarayonida, shuningdek texnologik ta'mirlash vaqtida.

1.15. Maxsulot uchun to'lovni javobgarlikni ta'minlash maqsadida tomonlar qo'shimcha garov shartnomasi, kafolat javobgarligi yoki notarius tomonidan tasdiqlangan kafolat majburiyati rasmiylashtirishlari mumkin.

1.16. Tomonlar ushbu shartnoma shartlarini bajarmasa yoki talab darajasida bajarmasa O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilik bo'yicha javobgardirlar. Shartnomada nazarda tutilmagan xolatlar O'zbekiston Respublikasidagi xarakatdagi konunlar bilan tartibga solinadi.

### Shartnomaning amal qilish muddati

1.17. Shartnoma imzolangan sanadan boshlab kuchga kiradi va yilning oxirgi sanasi, ya'ni 31 dekabrgacha amal qiladi.

1.18. SHartnoma ikki nusxada tuzilib ikkalasi xam bir xil kuchga ega.

1.19. Ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan kelishilmovchiliklar O'zbekiston Respublikasidagi xarakatdagi qonunlar bilan xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

### Томонларнинг реkvizitlari

#### “Ta'minotchi”

"Grain Island" MCHJ

Manzil: Jizzax viloyati, Gallaorol tumani, Madaniyat KFY

Bank: DT Xalkbank Gallaorol f-li

Bank kodi: 00677

x/r: 20 208 000 404 903 050 001

STIR: 301 625 731

XXTUT: 71211

I.Eshmurzayev

Muxr



#### “Ist'molchi”

G'allaorol tuman Moliya bo'limi

Manzil: Samarqand MFY Mustaqillik ko'chasi 52-uy

Bank: Markaziy bank

Bank kodi: 00014


x/r: 1000228 60082097011312092004

STIR: 201030700

XXTUT: 97160

M.Turdimuratov

Muxr



## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma

**2.Loyihaning nomi:** Xizmat ko'rsatish shaklida.

Ushbu shartnomani tuzuvchilar bir tomondan «Grain Island» MCHJ nomidan korxonada Nizomi asosida ish olib boruvchi boshliq I.Eshmurzayev keyinchalik TA'MINOTCHI, ikkinchi tomondan G'allaorol tuman hokimligi moliya bo'limi nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi keyinchalik ISTE'MOLCHI, lar o'rtasida shu haqdaki 2022-yil uchun Gaz yetkazib berish Ta'minotchiga tegishli bo'lgan G'allaorol tumani, Madaniyat QFY da joylashgan AGTKSHda, Iste'molchiga tegishli bo'lgan 1.350.000 so'mlik tabiiy metan gaz yoqilg'isida ishlaydigan avtomobillarning gaz ballonlarini gaz bilan to'ldirish to'g'risida.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.**

Loyiha G'allaorol tuman hokimligi\* moliya bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan. 2022-yil 18-yanvar kuni elektron tizimga birlashtirilgan va JH35366207 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik shartnonasiga nisbatan qo'yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



I.S.Norkuziyev

2022-yil 19-yanvar